

KELAJAGIMIZNI YOVUZ KUHLAR QO'LIGA BERIB QO'YISHGA HAQQIMIZ YO'Q

Rashidova Baxti Yaxyaevna

*Jizzax politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası katta o'qituvchisi
baxtirashidova@gmail.com*

Abdugafforov Nurbek

JizPI Transport fakulteti talabasi

Annotatsiya: Kamil inson g'oyasi kishining o'zidagi fazilatlarni umrining oxiriga qadar takomillashtirish, illatlarni esa bartaraf etib borishni taqozo etadi. Dunyoda ma'naviyatni ravnaq toptirishni istaydigan, faoliyatini batamom shunga qaratadigan kuchlar bo'lgani kabi ma'naviyatga to'g'ridan-to'g'ri qarshi qaratilgan guruhlar ham mavjud. Ularning ma'naviyatga qarshi yo'naltirilgan xatti-harakatlari majmuasini "ma'naviy tahdidlar" deymiz. Yurtimizda ilm-fan, ta'lim va tarbiya, ma'naviyat ustuvor masaladir. Ushbu maqolada mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan ishlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit So'zlar: Kamil inson, ma'naviyat, mafkura mafkuraviy bo'shliq, jamiyat, ilm-ma'rifat, globallashtirish, qadriyat, vatanparvarlik, tarbiya, kamil inson, salbiy illatlar. Har bir xalq ulkan daraxtga uxshaydi. Uning ildizlari naqadar teran bo'lsa qaddi-basti ham shunga yarasha ulug buladi. Ma'naviyat xalqning ana shunday o'q tomiridir. Bu ildizdan suv ichgan avlod aslo kam bo'lmaydi. Ko'zlagan murodiga ham shu quvvat bilan etib keladi.

Ma'lumki, Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 22 dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Respublikamizda ushbu Kengash raisi Prezident, hududlarda esa birinchi rahbarlar hisoblanadi. Chunki ilm-fan, ta'lim va tarbiya, ma'naviyat ustuvor masaladir. Davlatimiz rahbari buning uchun avvalo mustahkam iqtisodiy asoslar kerakligini ta'kidlab, shu borada amalga oshirilayotgan ishlarni qayd etib o'tdi. Ushbu iqtisodiy asos natijasida bu yil ijtimoiy sohaga eng ko'p – 134 trillion so'm mablag' ajratildi. Bu – 2016 yilga solishtirganda 5,6 barobar ziyod demakdir.

Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur'atlari shiddatli tus olgani, o'ta ziddiyatli jarayonlarning ta'siri mamlakatimizda ham sezilayotgani qayd etildi.

Prezident ma'naviyat va ma'rifat sohasida 9 ta yo'nalishda muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Milliy g'oyani rivojlantirish, ayollarning ta'lim olishi va kasb-hunar egallashiga e'tiborni kuchaytirish, ma'naviyat va ma'rifat maskanlari, madaniyat

markazlarini ishga tushirish, teatr va kino san'atini rivojlantirish va boshqa tashabbuslar e'tiborga havola qilindi.

Ma'naviyat bor joyda unga qarshi qaratilgan kuch ham bo'ladi. Chunki ma'naviyatga fazilatlar majmuasi deb qarasaq, illatlar yig'indisini ma'naviyatsizlik hisoblaymiz. Afsuski, fazilatlar ham, illatlar ham bir shaxsning o'zida namoyon bo'lishi mumkin. SHuning uchun komil inson g'oyasi kishining o'zidagi fazilatlarni umrining oxiriga qadar takomillashtirish, illatlarni esa bartaraf etib borishni taqozo etadi. Dunyoda ma'naviyatni ravnaq toptirishni istaydigan, faoliyatini batamom shunga qaratadigan kuchlar bo'lgani kabi ma'naviyatga to'g'ridan-to'g'ri qarshi qaratilgan guruhlar ham mavjud. Ularning ma'naviyatga qarshi yo'naltirilgan xatti-harakatlari majmuasini «ma'naviy tahdidlar» deymiz.

Bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish hech qachon oson kechmagan. Ana shunday murakkab jarayonda muayyan ma'noda mafkuraviy bo'shliq paydo bo'ladi. Muayyan kuchlar bu bo'shliqni egallashga jon-jahdi bilan harakat qilishadi.

Prezident SHavkat Mirziyoev Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida quyidagi fikrlarni bayon qildilar: "O'zimizga bir savol berib ko'raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g'oyaviy- mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Mana,bugun ma'naviy- ma'rifiy sohada masala qanday o'tkir va ko'ndalang bo'lib turibdi. Bular oddiy savollar emas.Odamni jiddiy o'ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug' dunyoda "o'zbek", O'zbekiston" degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo'yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo'ladi".

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, shu narsa oydinlashdiki, ma'naviyat bor joyda unga qarshi tahdid ham bo'laverar ekan. Biz globallashuv davrida yashayapmiz. Uning bosh xususiyati shuki, er yuzining istalgan nuqtasida paydo bo'lgan bir yangilik zudlik bilan butun dunyoga yoki uning juda katta qismiga tarqaladi. Ammo bu yaxshi yangilik bo'lishi ham, yomon yangilik bo'lishi ham mumkin. Aynan shuning uchun ham, xuddi tayoqning ikki uchi bo'lgani kabi, globallashuvning ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bor [1.91-bet]

Salbiy jihati esa tezkor taraqqiyot va bozor iqtisodiyoti har qanday mamlakatga o'zining barcha noxush tomonlari bilan birga kirib keladi. Bu esa globallashuvning salbiy tomonlaridan insonlarni ehtiyot bo'lishga undaydi.YOt kuchlar zamonning ana shu xususiyatidan o'z manfaatlari, yovuz maqsadlari yo'lida foydalanishga, turli zararli g'oya va mafkuralarni dunyo bo'ylab tarqatishga zo'r berib urinaveradi. SHu tariqa hozirgi zamonda odamlar qalbi va ong-tafakkurini zabt etishga urinish o'zaro kurashning asosiy maydoniga aylanib ulgurgan.

Globalashuv davrini kompyutersiz, internet tarmogʻisiz aslo tasavvur qilib boʻlmaydi. Bugun kompyuterni bilmaydigan, internet tarmogʻi imkoniyatlaridan foydalana olmaydigan odamlar zamondan ortda qolgan hisoblanadi. Yoshlarimiz shuni his etgan holda kompyuter va internetdan foydalanishni puxta oʻrganishmoqda. Yana bir jihatni aytish kerakki, bugun internetdan foydalanish uchun kompyuter sotib olish shart emas. Zamonaviy uyali telefonlar orqali internet tarmogʻiga bemalol ulanish va undan istagancha foydalanish mumkin. Xoʻsh, internet ham yaxshi, ham yomon maʼlumotlar oʻchogʻi hisoblansa, yoshlarimiz undan bemalol foydalanayotgan boʻlsa, ular tarmoqlardan qaysi maʼlumotlarni olayotganini kim nazorat qiladi? Aytish joizki, internetdan foydalanish uchun bir oz xarajat ham kerak boʻladi. Bu xarajalar, albatta, oila byudjetidan ajratiladi. Biz – farzandsevar xalqimiz, hayotimizni bolalarimizga tikkanmiz, ulardan hech narsamizni ayamaymiz. Biroq... Gap shundaki, internet orqali bolalarimiz aqlan oʻsib, maʼnan etuklikka erishishi, komil inson boʻlib tarbiyalanishi, ilm-maʼrifat oʻrganib, ezgulikka intilishi mumkin. [2. 31-36 - betlar] Bugungi kunda internetdan foydalanmay turib zamon talablariga javob beradigan mutaxassis boʻlib etishishni mutlaqo koʻz oldimizga keltira olmaymiz. SHu bilan birga, aynan internetning salbiy taʼsirida farzandlarimiz ong-tafakkurining yomon tomonga oʻzgarishi mumkinligini ham nazardan qochirib boʻlmaydi. “Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi”. Dono xalqimiz bu hikmatni bejiz aytmagan. Bugun aynan internet orqali feʼl-atvori oʻzgarib, odamovi boʻlib borayotgan, shuningdek, jinoyatchi qiyofasiga kirib, oʻzini oʻzi oʻldirayotgan hamda terrorchiga aylanib, qoʻliga qurol olayotgan yoshlarimiz ham yoʻq emas. Hozir koʻchalarda yoshlarga eʼtibor qiling: deyarli hammasining qoʻlida zamonaviy telefon, qulogʻida goʻshak. Ayrimlari dasturxon atrofida ham internet xabarlarini oʻqigani-oʻqigan. Atrofdagilar bilan ishi yoʻq. Hayot bilan qiziqmay qolgan, fikri hayoli qoʻlidagi ana shu “matoh”da. Internet-kafelar ham yoshlarimiz bilan gavjum. Ammo bu erga kirgan farzandlarimiz internetdan nima maqsadda foydalandi, nimalarni oldi, qanday oʻyin oʻynadi, kimga nima yubordi. Bularni kim nazorat qiladi, vaqtinchalik ish bilan taʼminlanmagan yoshlarimizga nisbatan ham shunday fikr aytish mumkin. Chunki barcha yomon illatlarning ildizi bekorchilik va ishsizlikka borib taqaladi. Dunyoda gʻoyadan kuchli qurol boʻlmaydi. Bugungi kunda yovuz kuchlar oʻz gʻarazli gʻoyalarini tarqatish uchun internetdek tayyor “dastyor”dan ustomonlik bilan foydalanib kelmoqda. Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar aynan “ommaviy madaniyat”ni targʻib etishning eng keng tarqalgan vositasiga aylanib boryapti. Bundan farzandlarimizni asrashimiz lozim. Bu masala bugun hammani, yaʼni, butun jamiyatni oʻylantirishi shart. 2017 yilning 15 iyun kuni poytaxtimizda “Ijtimoiy

barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusida anjuman o'tkazildi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev nutq so'zlab, jumladan, hozirgi vaqtda dunyo miqyosida hukm surayotgan tahlikali vaziyat, siyosiy va iqtisodiy inqirozlardan tashvishga tushmayotgan birorta davlat yoki jamiyat yo'qligini qayd etdilar. "Ayniqsa, xalqaro terrorizm, ekstremizm, narkotrafik, diniy qarama-qarshilik, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, ekologik muammolar, ayrim mintaqalarda iqtisodiy nochorlik, ishsizlik, qashshoqlik kuchayib borayotgani butun insoniyatni qattiq xavotirga solayotgani" alohida ta'kidlandi. Xo'sh, diniy-ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushib, bugun xorijiy davlatlarda xunrezliklarga sherik bo'lib qolgan yoshlarni aynan internet o'z to'riga ilintirmadi, deb kim ayta oladi. [3.57-bet] Ana shu salbiy oqibatlariga qarab aytish mumkinki, hozirgi zamonda ijtimoiy tarmoqlar insoniyat boshiga bitgan balo ham bo'ldi. Vayronkor g'oya ilmsiz jamiyatga ko'proq bostirib kiradi. SHuning uchun fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi esa ma'rifat bilan kurashmoq zarur.

"Tarixdan ma'lum, Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg'oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan etuk kadrlar suv bilan havodek zarur", deb ta'kidladi SHavkat Mirziyoev ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisida. Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish uchun jamiyatda ilm-ma'rifatni ravnaq toptirish eng muhim vositalar sirasiga kiradi. Ma'naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan kuch – mafkuraviy immunitet. Tovar bozor sharoitida raqobatdosh bo'lgani kabi, kishilar ongi va qalbini egallash uchun kuchli raqobat kechayotgan hozirgi o'ta murakkab va tahlikali zamonda aynan jamiyatning tahdidbardoshligini ta'minlash ham juda muhimdir. Demak, insonlarda yuksak ma'naviyatni shakllantirish, uni ana shu tahdidlardan asrash uchun bir lahza bo'lsin, kurashdan to'xtamaslik kerak ekan.

1. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak." Prezident Shavkat Mirziyoevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi.

2. Yo'ldosheva S.M. Sog'lom turmush tarzi – tahdidlarga qarshi kurash omili sifatida. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda axloqiy qadriyatlarining o'rni. // T.:2009. 191 b.
3. Tulenova.G “O‘zbekistonda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash muammolari” // Huquq. T.:1999, № 5. 31-36 b.
4. Islamov I.N. Ma’naviyatga tahdid – kelajakka tahdid. Globallashuv, modernizatsiya va tolerantlik: muammolar, echimlar va istiqbollar. Konferensiya materiallari.-T.:2009, 57 b.
2. 5.MA’NAVIY HAYOT.Tarixiy-falsafiy,ma’naviy-ma’rifiy,ilmiy-ommabop jurnal. №2(30),2021
3. Rashidova, B. (2022). Yuksak ma’naviyat avvalo inson odobida namoyon bo‘ladi. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(12), 351-355.
4. 7. Yahyaevna, B. R. (2023). Education-First of All, it Means Immigration of Knowledge to the Child through Kindness, Attention and Care. American journal of science and learning for development, 2(1), 161-168.
5. Yaxyayevna, R. B. (2023). We Will Not Allow Ignorance to Replace Enlightenment. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences, 2(3), 23-26.
6. Yaxyayevna, R. B. (2023). The Role of the Neighborhood in Preparing Young People for Family Life. American journal of science and learning for development, 2(3), 37-40.
7. Рашидова, Б. Я. (2024). Таълим-тарбия қанча муқаммал бўлса, халқ шунча бахтли яшайди. Educational research in universal sciences, 3(1), 464-469.
8. Р.Хидоятлов “Маънавиятсиз – иқтисодийни юксалтириб бўлмайди”. Министерство Транспорта Республики Узбекистан Ташкентский транспортный университет при поддержке: Исполнительного комитета стран СНГ- координационное транспортное совещание государств-участников СНГ. Международная научно-техническая конференция “Транспорт: актуальные задачи и инно
9. Хидоятлов, Р., Хакимов, О., & Исакобулов, Р. Ю. (2016). Духовная просвещенность руководителя: проблемы и их решения. *Молодой ученый*, (7-2), 96-99.вацции”. Тошкент 22 апреля 2021г.
10. Хидоятлов, Р., & Тўхтаев, З. (2022). Некоторые аспекты либерализации новой узбекской экономики. *Innovative developments and research in education*, 35.
11. Хидоятлов, р. (2023). Миллий иқтисодийнинг рақобатбардошлигини ошириш жамият таракқиётида муҳим омил.